



BAXTIQARO KERRI ROMANIDA SHAXSNING TOVARLAR OLAMI ORQALI QAYTA SHAKLLANISHI

Muallif: Soybnazarov Navruzбек Mashrabboy o‘g‘li¹

Affiliyatsiya: Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20232552>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Baxtiqaro Kerri romani XIX asr oxiri va XX asr boshlarida AQShda jadallashgan industrializatsiya va urbanizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Stanley Korkein talqiniga ko‘ra, ayni tarixiy bosqichda mehnat, insoniy munosabatlar va o‘zlik haqidagi tasavvurlar tubdan o‘zgarib, narsalar hamda tovarlar shaxsni anglashning muhim vositasiga aylangan. Maqolada roman qahramonlari, xususan Kerri, Druet va Harstvud obrazlarining tashqi ko‘rinish, moddiy imkoniyat va ijtimoiy foydalilik mezonlari asosida talqin qilinishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, Drayzer romanining poetik hamda narrativ tuzilishi ham ayni obyektlashgan dunyoqarashni mustahkamlashi ilmiy asosda yoritiladi. Natijada Baxtiqaro Kerri faqat axloqiy inqiroz romani sifatida emas, balki industrial jamiyat sharoitida shaxsning tovarlar va ijtimoiy funksiyalar tizimi orqali qayta shakllanishini ifodalovchi naturalistik matn sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Baxtiqaro Kerri, sanoatlashuv, urbanizatsiya, begonalashuv, ijtimoiy o‘zlik, naturalizm, iste‘mol madaniyati, hikoyalash strategiyasi.

Stanley Korkein Baxtiqaro Kerri romanini XIX asr oxiri va XX asr boshlarida AQShda yuz bergan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar fonida talqin qiladi. Uning fikricha, sanoatlashuv va urbanizatsiya nafaqat mehnat shakllari hamda oilaviy munosabatlarni, balki insonning o‘zini va dunyoni anglash usulini ham tubdan o‘zgartirgan [1:606]. Agar agrar muhitda mehnat inson hayotining ichki va mazmunli qismi bo‘lgan bo‘lsa, industrial jamiyatda u bozorga chiqariladigan tovarga aylangan. Shu bois mehnat endilikda shaxsning o‘zini bevosita namoyon etuvchi faoliyat emas, balki boshqalar tomonidan boshqariladigan va inson uchun ichki ma‘nosini tobora yo‘qotib boradigan ishlab chiqarish jarayoniga aylanadi. Bu holatni Marxning begonalashuv nazariyasi bilan bog‘lash mumkin: mehnat mahsuli ishchidan ajralib, unga begona va tashqi kuch sifatida qarama-qarshi turadi.[2: 606] Natijada begonalashuv ishlab chiqarish doirasi bilan cheklanib qolmay, madaniy hayotning keng qatlamlariga ham yoyiladi; narsalar va tovarlar esa insonning o‘zligini anglash va belgilashning muhim vositalaridan biriga aylanadi. [1:606] Baxtiqaro Kerri ushbu yangi dunyoqarashni shunchaki tasvirlab bermaydi, balki uni tabiiy va ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan reallik sifatida ham namoyish etadi. Tadqiqotchining ta‘kidlashicha, roman bir tomondan realist shakldan foydalanadi. Ikkinchi tomondan esa u voqealarni sharhlovchi hamda o‘quvchini ularni qanday anglashga yo‘naltiruvchi “obyektiv” hikoyachi ovozini ishga soladi. Shu ma‘noda, romandagi obyektivlik oddiy uslubiy xususiyat emas; u o‘quvchini tovarlar olamini ijtimoiy ma‘no tashuvchi reallik sifatida qabul qilishga undovchi hikoyalash strategiyasi vazifasini

bajaradi. Asarning badiiy va intellektual ta'siri ham aynan shunga bog'liq: o'quvchi matndagi obyektlarni shunchaki buyum sifatida emas, balki ijtimoiy ma'no yuklangan unsurlar sifatida anglay olishi lozim. Demak, roman kuchi nafaqat unda hikoya qilinayotgan voqealarda, balki narsalar orqali ifodalangan ijtimoiy mazmunni o'quvchiga "o'qita olish" salohiyatida ham namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqib, Korkin talqini Baxtiqaro Kerri individual axloqiy inqiroz haqidagi asar sifatida emas, balki zamonaviy sanoatlashish sharoitida o'zlikning tashqi belgilar va tovar munosabatlari orqali shakllanishini ko'rsatuvchi roman sifatida o'qish imkonini beradi.

Korkin talqinida Baxtiqaro Kerri romanining asosiy konseptual yo'nalishi asarning boshlanishidayoq namoyon bo'ladi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, Kerri poezdda ilk bor tasvirlangan sahnada muallif qahramonning ichki kechinmalarini emas, avvalo uning umumiy tashqi ko'rinishini — sandiq, arzon taqlid alligator terisidan yasalgan sumka, qog'oz qutidagi ovqat hamda hamyonini tasvirlaydi. Shu tariqa Kerri o'quvchiga, birinchi navbatda, psixologik individualligi orqali emas, balki o'ziga tegishli buyumlarning ijtimoiy ma'nosi vositasida tanishtiriladi. Ayniqsa, sun'iy timsoh terisidan ishlangan sumka obrazi uning bir tomondan kamtar ijtimoiy kelib chiqishini, ikkinchi tomondan esa yaxshiroq hayot sari intilishini anglatadi. Demak, buyum bu yerda shunchaki tasviriy detal emas, balki ijtimoiy identifikatsiya belgisi vazifasini bajaradi. Shu sabab Korkin Kerrini narsalarning oddiy egasi sifatida emas, balki tovarlar olami bilan chambarchas bog'langan subyekt sifatida talqin qiladi; natijada uning insoniyligi ham tovarlashuv jarayonidan chetda qolmaydi. Korkin talqinida Baxtiqaro Kerri zamonaviy sanoatlashuv sharoitida shakllangan yangi amerikalik o'zlikning badiiy modelini yaratadi. Bu modelda inson ichki mohiyati, axloqiy barqarorligi yoki ruhiy yaxlitligi bilan emas, balki obyektlar, tashqi belgilar va ijtimoiy ko'rinishlar orqali anglashiladi. Roman shakli ham, tasvir prinsipi ham ayni shu obyektlashgan dunyoqarashni mustahkamlaydi: narsalar insonni tavsiflaydi, ijtimoiy mavqe buyumlar orqali o'qiladi, o'zlik esa barqaror ichki mohiyat emas, balki tashqi belgilar asosida doimiy ravishda qayta shakllanib boradigan hodisaga aylanadi [2:608]. Shu jihatdan Korkinning yondashuvi Baxtiqaro Kerri romanini faqat axloqiy inqiroz romani sifatida emas, balki industrial jamiyatda shaxsning tovarlar olami orqali qayta ta'riflanishini ko'rsatadigan naturalistik matn sifatida talqin etish imkonini beradi.

Roman kompozitsiyasi ham ayni obyektlashuv mexanizmini izchil mustahkamlaydi. Korkinning kuzatishicha, boshlanish sahnasidan keyin Kerri asta-sekin alohida individ maqomidan "one girl among countless girls" darajasiga tushiriladi; ya'ni u betakror shaxs sifatida emas, balki takrorlanuvchi ijtimoiy tip sifatida ko'rsatiladi. Shu bois Baxtiqaro Kerri mazmun va shakl darajasida obyektlashuv hamda anomiya haqidagi roman sifatida namoyon bo'ladi: bunday dunyoda obyektlar tobora ko'proq insoniy funksiya va ma'noni o'zlashtiradi, odamlar esa asta-sekin mexanik mavjudotlarga o'xshab qoladi. Mazkur model Kerri, Druet va Harstvud o'rtasidagi munosabatlarda ayniqsa ravshanlashadi. Roman bu aloqalarning, avvalo, funksional tomonini ochib beradi: Druet Kerriga iste'mol imkoniyatlarini taqdim etadi, Harstvud esa ijtimoiy va geografik ko'chish imkonini yaratadi, Kerri esa ularning umumiy ko'rinishi va ijtimoiy bezak qiymatini kuchaytiradi. Druet obrazi orqali Kerri insonning ichki mohiyatidan ko'ra uning tashqi ko'rinishi, muomalasi va moddiy imkoniyatini "o'qiydi". Vindsor restoranidagi sahnada ham Druetning so'zlaridan ko'ra stol jihozlari, uzuklar, kiyim detallari va

“yumshoq va deyarli tovush chiqarmaydigan qog‘oz pullarlar” markaziy semantik yukni ko‘taradi. Shu tariqa Druet emotsional yoki intellektual chuqurlik manbai sifatida emas, balki moddiy imkoniyat ishlab chiqaruvchi figura sifatida namoyon bo‘ladi. Harstvud obrazi ham ayni tizimning mantiqiy davomidir. Kerri uni ham, avvalo, uning mavqei, tashqi ko‘rinishi va “Fitzgerald va Moy restoranining menejeri” sifatidagi funksional o‘rni orqali qabul qiladi. U Kerrini Nyu-Yorkka olib boradi, sahna muhitiga kirishiga yo‘l ochadi va shu ma’noda iqtisodiy hamda ijtimoiy imkoniyatlar ishlab chiqaruvchi figura vazifasini bajaradi. Biroq Harstvud ayni funksiyalarni yo‘qotishi bilan tez sur‘atda yemiriladi: u na Kerri uchun, na o‘zi uchun avvalgi qiymatini saqlab qola oladi. Natijada uning fojeasi individual axloqiy mag‘lubiyatdan ko‘ra ko‘proq foydalilik, maqom va namoyish ahamiyatini boy bergan subyektning yo‘qolishi sifatida talqin qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, Korin talqinida Baxtiqaro Kerri faqat axloqiy inqiroz haqidagi roman sifatida emas, balki industrial jamiyat sharoitida shaxsning obyektlar, tovarlar va ijtimoiy funksiyalar tizimi orqali qayta shakllanishini ifodalovchi naturalistik matn sifatida namoyon bo‘ladi. U sanoatlashgan jamiyatda shaxsning obyektlar, tovarlar va ijtimoiy funksiyalar tizimi orqali qayta shakllanishini ko‘rsatadigan naturalistik matndir. Roman qahramonlarning ichki ruhiy olamidani ko‘ra, ularning obyektlashgan dunyo ichidagi o‘rnini ko‘rsatishga ko‘proq e’tibor qaratadi; aynan shu sabab matn nafaqat bunday dunyoni tasvirlaydi, balki uni tabiiy va ishonarli ijtimoiy reallik sifatida ham taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chambers, J. W., II. (1980). *The tyranny of change: America in the Progressive Era, 1900–1917*. St. Martin’s Press.
2. Corkin, S. (1987). *Sister Carrie and industrial life: Objects and the new American self*. *Modern Fiction Studies*, 33(4), 605–619.
3. Dreiser, T. (1970). *Sister Carrie* (D. Pizer, Ed.). Norton. (Original work published 1900)
4. Fass, P. (1977). *The damned and the beautiful*. Oxford University Press.
5. Howells, W. D. (1886). *Editor’s study*. *Harper’s New Monthly*, 72, 321–326.
6. Jameson, F. (1981). *The political unconscious*. Cornell University Press.
7. Kendrick, W. (1980). *The novel-machine*. Johns Hopkins University Press.
8. Lasch, C. (1979). *The culture of narcissism*. Warner.
9. Marcuse, H. (1966). *Eros and civilization*. Beacon Press.
10. Marx, K. (1964). *The Economic and Philosophic Manuscripts of 1844* (D. J. Struik, Ed.). International Publishers.